

Qadirova Dilnoza

Baxtiyorovna

Namangan davlat universiteti,

Jahon tillar fakulteti,

Ingliz tili kafedrasi katta o'qituvchisi

mkdilnoz.qodirovaxon@gmail.com

UO'K: 37.013.42:81'243

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA
MILLIY VA UMUMMADANIY KOMPETENSIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Annotatsiya: Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi bugungi globallashuv davrida dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmoqda. Chunki, kelajakdagi o'qituvchi nafaqat til bilimiga ega bo'lishi, balki uni turli madaniyat vakillariga mos tarzda yetkaza olishi, xalqaro maydonda samarali muloqot qila olishi ham talab etiladi. Shu bois, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, madaniy meros asosida shakllanadigan milliy kompetensiyalar bilan bir qatorda, dunyoqarashni kengaytiruvchi, turli xalqlarning madaniyati va mentalitetini anglashga xizmat qiluvchi umummadaniy kompetensiyalar ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari, metodik yondashuvlar, interaktiv pedagogik texnologiyalar va ta'limiy strategiyalar keng tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur jarayonning ijtimoiy, madaniy va didaktik ahamiyati ham asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, milliy kompetensiya, umummadaniy kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, ta'lim texnologiyalari, pedagogik muammo, xalqaro tajriba.

Кадирова Дилноза Бахтиёровна

Наманганский государственный университет,

Факультет мировых языков,

Старший преподаватель кафедры английского языка
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ И
ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ
ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА КАК АКТУАЛЬНАЯ
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: В современном глобализированном обществе подготовка будущих преподавателей английского языка требует не только высокого уровня языковых знаний, но и формирования у них национальных и общекультурных компетенций. Национальная компетенция обеспечивает глубокое понимание собственных традиций, культурных ценностей и духовного наследия, тогда как общекультурная компетенция способствует расширению кругозора, развитию навыков межкультурного общения и толерантности к иным культурам. В статье рассматриваются педагогические подходы к совершенствованию этих компетенций, раскрывается их роль в процессе профессионального становления учителя английского языка, анализируются современные образовательные технологии, интерактивные методы и стратегии обучения. Особое внимание уделено необходимости гармоничного сочетания национальных и международных образовательных стандартов, что обеспечивает конкурентоспособность будущих педагогов на мировом уровне.

Ключевые слова: будущие преподаватели английского языка, национальная компетенция, общекультурная компетенция, межкультурная коммуникация, педагогическая проблема, образовательные технологии, международный опыт.

Kadirova Dilnoza Bakhtiyarovna
Namangan State University,
Faculty of World Languages,
Senior Lecturer of the Department of English

Abstract: In today's era of globalization, the training of future English language teachers is not limited to mastering linguistic knowledge but also requires the development of national and cultural competencies. National competence enables teachers to preserve and promote their own traditions, cultural values, and heritage, while cultural competence broadens their worldview, fosters intercultural communication skills, and encourages respect for diversity. This article examines the pedagogical significance of integrating these competencies into teacher training programs, highlighting effective methodological approaches, innovative educational technologies, and interactive strategies that enhance professional growth. Furthermore, it emphasizes the importance of harmonizing national identity with international educational standards, ensuring that future English language teachers are capable of engaging in meaningful intercultural dialogue and contributing to the global educational community.

Keywords: future English language teachers, national competence, cultural competence, intercultural communication, pedagogical issue, educational technologies, international experience.

Kirish

Bugungi kunda dunyo miqyosida globallashuv va integratsiya jarayonlari jadallashib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan vazifalar ham tobora murakkablashmoqda. Xalqaro hamkorlik, turli xalqlar va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi, xorijiy tillarga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi ingliz tilini o'rgatish va o'rganish jarayonini strategik ahamiyatga ega masalaga aylantirmoqda. Shu boisdan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda nafaqat lingvistik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, balki ularning milliy va umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish ham dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy kompetensiya, eng avvalo, bo'lajak o'qituvchining o'z xalqining tarixi, madaniy merosi, qadriyatlari va an'analariga hurmat bilan qarashini, ularni chuqur o'zlashtirishini va amaliy faoliyatida

qo'llashini ta'minlaydi. Bunday kompetensiyaga ega shaxs o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otadi, ularda milliy o'zlikni anglash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga asoslangan bilim va ko'nikmalar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Umummadaniy kompetensiya esa bo'lajak ingliz tili o'qituvchisiga turli millat va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish, madaniyatlararo farqlarni to'g'ri anglash, bag'rikenglik va tolerantlik tamoyillarini amalda qo'llash imkonini beradi. Ingliz tili – xalqaro muloqot vositasi sifatida – faqat til bilimini emas, balki madaniyatlararo tafakkurni ham talab qiladi. Shu sababli, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirish o'ziga xos metodik va pedagogik yondashuvlarni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi so'nggi yillarda xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur masalaga oid adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli olimlar bu jarayonga lingvodidaktik, madaniyatshunoslik, psixologik va pedagogik nuqtayi nazardan yondashib, muammoning turli qirralarini ochib berganlar. Xorijiy manbalarda eng avvalo madaniyatlararo kommunikatsiya nazariyalari alohida o'rin egallaydi. M. Byram o'zining "Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence" asarida o'qituvchining lingvistik bilimlari bilan bir qatorda, boshqa madaniyatlarni anglash va ularga hurmat ruhida yondashish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarurligini asoslab beradi. S. Kramch esa "Context and Culture in Language Teaching" kitobida til o'qitish jarayonida madaniy kontekstning ajralmas o'rin tutishini ta'kidlaydi. D. Deardorf o'z tadqiqotlarida madaniyatlararo kompetensiyani talabalarda o'quv jarayonining natijasi sifatida baholash mezonlarini ishlab chiqadi. A. Fantini esa madaniyatlararo kompetensiyaning tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish usullarini taklif etadi.

Ushbu manbalar umumiy tarzda ingliz tilini o'rgatishda til va madaniyatning uzviy bog'liqligini ko'rsatib, o'qituvchilar tayyorlashda umummadaniy kompetensiyaning dolzarbligini asoslab beradi. Milliy olimlarning ilmiy izlanishlari ham mazkur muammoning turli jihatlarini yoritib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston pedagog olimlari ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni o'quv dasturlariga singdirish, talabalarni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratadilar. Mahalliy tadqiqotlarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlodga yetkazish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, innovatsion pedagogik texnologiyalar, integrativ yondashuv va zamonaviy o'qitish metodlari yordamida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirishning samarali yo'llari ham ko'rsatib o'tiladi [1,2].

Tadqiqot metodologiyasi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan o'rganish keng qamrovli metodologik yondashuvni talab etadi. Tadqiqotning metodologiyasi umumiy pedagogika, psixologiya, tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining nazariy tamoyillariga, shuningdek, zamonaviy ta'limning innovatsion konsepsiyalariga tayanadi. Metodologik yondashuv, eng avvalo, kompetensiyaga asoslangan ta'lim paradigmasiga tayanadi. Bu paradigma talabaning bilimlarni shunchaki egallashi emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi, Byramning "interkultural kompetensiya modeli" hamda Kramshning "madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi" haqidagi qarashlari metodologik poydevor vazifasini bajaradi [3,4].

Metodologiyaning asosi bo'lib quyidagi ilmiy-pedagogik tamoyillar xizmat qiladi:

- **Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili** – o'qituvchi va talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy rivojlanishini hisobga olish;
- **Integrativlik tamoyili** – milliy qadriyatlarni xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirish;
- **Madaniyatlararo yondashuv tamoyili** – tilni o'qitishda madaniyatni ajralmas qism sifatida ko'rish;

Metodologiya doirasida bir qator ilmiy tadqiqot metodlari qo'llaniladi:

1. **Nazariy metodlar** – mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, mavjud konsepsiyalarni qiyosiy o'rganish, ilg'or xorijiy tajribalarni umumlashtirish.
2. **Empirik metodlar** – kuzatish, suhbat, so'rovnoma, test sinovlari orqali talabalar va o'qituvchilarning milliy hamda umummadaniy kompetensiyalar darajasini aniqlash.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- **Interaktiv metodlar:** “Debat”, “Rol o'ynash”, “Case study” (amaliy vaziyatlarni tahlil qilish), “Muammoli ta'lim” metodlari;
- **Kommunikativ metodlar:** haqiqiy hayotiy vaziyatlarda muloqotni tashkil etish, ingliz tilida madaniyatlararo suhbatlar olib borish;

Natijalar va ularning tahlili

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqot va pedagogik tajribalar bir qator muhim ilmiy hamda amaliy natijalarni ko'rsatdi. Ushbu natijalar o'qituvchining nafaqat lingvistik bilim darajasi, balki

madaniyatlararo muloqot qobiliyati, milliy qadriyatlarga sodiqligi va umuminsoniy tamoyillarga hurmatini oshirishda ham samarali bo'lganini tasdiqladi [5].

1. Milliy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'quv jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan topshiriqlar, madaniy merosimizni yorituvchi matnlar, milliy urf-odatlar va an'analarni ingliz tilida talqin qilish bo'yicha mashg'ulotlar qo'llanganda talabalar:

- a) milliy o'zlik va madaniyatni chuqurroq anglashga erishgan;
- b) o'z xalqining tarixi, adabiyoti va san'atini ingliz tilida ifodalay olish malakasini oshirgan;

Natijalarda shuningdek, milliy kompetensiya talabalarda vatanparvarlik, milliy g'urur, o'zlikni anglash va ma'naviy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini mustahkamlagani qayd etildi.

2. Umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishdagi natijalar

Interaktiv metodlar, xalqaro tajribaga asoslangan topshiriqlar va madaniyatlararo muloqot mashqlari asosida o'tkazilgan tajriba quyidagi ijobiy o'zgarishlarni berdi:

- a) talabalar turli millat va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish ko'nikmalarini rivojlantirdilar;
- b) madaniyatlararo tafovutlarni to'g'ri baholash, bag'rikenglik va tolerantlik tamoyillarini o'zlashtirish darajasi ortdi;

Bu esa talabalarni nafaqat malakali mutaxassis, balki global tafakkurga ega shaxs sifatida shakllantirish imkonini berdi.

3. Pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi

Tajriba davomida loyihaviy ta'lim, rol o'ynash, debatlar, case-study va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodlari joriy qilindi. Ushbu metodlar:

- a) talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka va hamkorlikka undadi;
- b) nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini berdi;

Ayniqsa, onlayn platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish talabalarda innovatsion fikrlash, zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash ko'nikmalarini mustahkamladi. Umumlashtirilgan natija sifatida aytish mumkinki, mazkur tadqiqotda qo'llangan metodlar va yondashuvlar bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Natijalar milliy va umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi hozirgi zamon ta'limi uchun nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyatga ega ekanligini yaqqol ko'rsatdi.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqot, tahlil va munozaralar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirish hozirgi zamon ta'limi uchun dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ingliz tili global muloqot vositasi sifatida nafaqat lingvistik bilimlarni, balki madaniy tafakkurni, bag'rikenglikni va turli xalqlar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini ham talab etadi. Shu boisdan, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida milliy va umummadaniy kompetensiyalarning uyg'un rivojlanishi kasbiy tayyorgarlikning muhim mezoniga aylanadi.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni asoslash imkonini berdi:

1. **Milliy kompetensiya** – bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining o‘z xalqining tarixi, qadriyatlari, madaniyati va ma‘naviy merosini chuqur anglab, ularni o‘quv jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa o‘quvchilarni milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik va g‘urur ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.
2. **Umummadaniy kompetensiya** – talabalarni turli xalqlar madaniyatini o‘rganishga, ular bilan muloqot qilishga, bag‘rikeng va tolerant bo‘lishga yo‘naltiradi. Bu kompetensiya talabalarning global dunyoqarashini kengaytirib, ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishga yordam beradi [6].
3. **Milliy va umummadaniy kompetensiyalarning uyg‘unligi** – ta‘lim jarayonida ularning birgalikda rivojlanishi talabalarda nafaqat kasbiy, balki shaxsiy kamolot uchun ham mustahkam asos yaratadi. O‘z madaniyatini chuqur anglagan shaxs boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila oladi. Umuman olganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining tayyorgarligida milliy va umummadaniy kompetensiyalarni takomillashtirish ta‘lim jarayonining strategik vazifalaridan biri bo‘lib, kelajakda raqobatbardosh, madaniy jihatdan yetuk va innovatsion fikrlovchi o‘qituvchilarni shakllantirishning poydevorini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram, M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.
2. Kramsch, C. *Context and Culture in Language Teaching*. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 295 p.
3. Deardorff, D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // *Journal of Studies in International Education*. – 2006. – Vol. 10(3). – P. 241–266.
4. Fantini, A. E. *Exploring and Assessing Intercultural Competence*. – Brattleboro, VT: SIT Graduate Institute, 2009. – 65 p.

5. Егорова Ю. А. Проблема качества высшего образования // *Современные наукоемкие технологии*. – 2022. – № 1. – С. 43–44.
6. Miller, Richard I. The Quality Movements in Higher Education in the United States // *Higher Education in Europe*. – 2024. – Vol. XXI. – № 2–3. – P. 111–123.